

1. Gumperz J. *Discourse Strategies*. Cambridge University Press.
2. Myers-Scotton C. *Social Motivations for Code-Switching*. Oxford University Press.
3. Auer P. *Code-Switching in Conversation*. Routledge.
4. Земская Е.А. Язык как деятельность.
5. Беликов В.И., Крысин Л.П. Социолингвистика.
6. Маматкулова. Ш. *The Linguistics of Code-switching: Navigating Multiple Dialects and Languages in Conversations*, 2025. Web of Teachers: Inderscience Research.
<https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/2863/2825>
7. Uluqov N. *Tilshunoslik nazariyasi – Toshkent*. 2016
8. Majitova, A. T. (2025). CODE SWITCHING AS A MAIN SUBJECT OF SOCIOLINGUISTICS. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 38, 5–11. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/709>
9. J. Holmes. An [Introduction](#) to [Sociolinguistics](#), 2000.
10. Fayzieva, N. (2025). LINGUCULTURAL FEATURES OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Development and Innovations in Science*, 4(7), 8–12. ИЗВЛЕЧЕНО ОТ <https://econferences.ru/index.php/dis/article/view/30648>

Xojiaxmedova Muhlisabonu Jahongir qizi, Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti, Farg'ona shahar 32- DMTT psixologi
ORCID ID 0009-0003-5914-851X, muhlisaxojiaxmedova@gmail.com



YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARIGA OILA ICHIDAGI MULOQOTNING TA'SIRI VA PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

<https://zenodo.org/records/18899641>

Annotatsiya: Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarining oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirish jarayoni hamda ushbu jarayonga oila ichidagi muloqotning ta'siri psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy asosini ijtimoiy o'rganish, bog'lanish, psixosotsial rivojlanish hamda ijtimoiy-madaniy yondashuvlar tashkil etadi. Empirik tadqiqot natijalari oila muhitidagi ochiq va qo'llab-quvvatlovchi muloqot o'quvchilarning kelajak oilaviy hayotiga nisbatan ijobiy va mas'uliyatli munosabatini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Aksincha, konfliktli yoki sovuq munosabatlar o'smirlarning oilaviy qadriyatlarga nisbatan noaniq yoki salbiy tasavvurlarini yuzaga keltirishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari yoshlarni oilaviy hayotga

tayyorlash jarayonida ota-onalar va pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar: oila, oila ichidagi muloqot, yuqori sinf oʻquvchilari, oilaviy hayot tasavvuri, ijtimoiy oʻrganish, shaxs rivojlanishi, nikohga tayyorgarlik, oilaviy qadriyatlar, psixologik omillar.

THE INFLUENCE OF INTRA-FAMILY COMMUNICATION ON HIGH SCHOOL STUDENTS' PERCEPTIONS OF FAMILY LIFE AND ITS PSYCHOLOGICAL MECHANISMS

Abstract. This article analyzes, from a psychological perspective, the process of forming high school students' perceptions of family life and the influence of intra-family communication on this process. The theoretical foundation of the study is based on social learning theory, attachment theory, psychosocial development theory, and the sociocultural approach. The results of the empirical research demonstrate that open and supportive communication within the family plays a significant role in shaping students' positive and responsible attitudes toward their future family life. Conversely, conflictual or emotionally distant relationships contribute to the development of uncertain or negative perceptions of family values among adolescents. The findings of the study are important for developing practical recommendations for parents and educators in preparing young people for family life.

Keywords: family, intra-family communication, high school students, perception of family life, social learning, personality development, preparation for marriage, family values, psychological factors.

ВЛИЯНИЕ ВНУТРИСЕМЕЙНОГО ОБЩЕНИЯ НА ПРЕДСТАВЛЕНИЯ СТАРШЕКЛАСНИКОВ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ И ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ

Аннотация. В данной статье с психологической точки зрения анализируется процесс формирования представлений старшеклассников о семейной жизни и влияние внутрисемейного общения на данный процесс. Теоретической основой исследования послужили подходы социального научения, теории привязанности, психосоциального развития и социокультурного подхода. Результаты эмпирического исследования показали, что открытое и поддерживающее общение в семье является важным фактором формирования у учащихся позитивного и ответственного отношения к будущей семейной жизни. Напротив, конфликтные или холодные отношения способствуют формированию у подростков неопределённых или негативных представлений о семейных ценностях. Результаты исследования имеют важное практическое значение для разработки рекомендаций родителям и педагогам в процессе подготовки молодежи к семейной жизни.

Ключевые слова: семья, внутрисемейное общение, старшеклассники, представления о семейной жизни, социальное научение, развитие личности, подготовка к браку, семейные ценности, психологические факторы.

Kirish

Yuqori sinf oʻquvchilari shaxs rivojlanishining ayni faol bosqichida boʻlib, ular hayotning turli yoʻnalishlariga nisbatan oʻz qarashlarini shakllantirib boradilar. Aynan mana shu davrda oila, nikoh, er-xotin munosabatlari, masʼuliyat va kelajak hayot modeli

haqidagi tasavvurlar barqarorlashib, o'smirning shaxsiy qadriyat tizimining muhim qismiga aylanadi. Ushbu tasavvurlar shakllanishida oila ichidagi muloqot alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki oila birinchi ijtimoiy muhit, birinchi psixologik maktab va shaxslararo munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy tizimdir. Oila ichidagi muloqotning ochiq yoki yopiq bo'lishi o'smirning oilaviy hayotga nisbatan qarashlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar farzandi bilan doimiy muloqotda bo'lib, uning fikri, his-tuyg'usi va kundalik kechinmalariga e'tibor qaratganida o'smir shaxs sifatida qadrlanganini his qiladi. Bu esa unda kelajakda oilada o'zaro hurmat, samimiyat, mehr-muhabbat kabi qadriyatlarni muhim deb bilishga zamin yaratadi. Bunday oilalarda o'smirlarning nikohga bo'lgan qarashlari ijobiy, realistik va mas'uliyatli bo'ladi. Farzand ota-onasi o'rtasidagi muloqotni kuzatib, ularning bir-biriga bo'lgan hurmatini, bahslarni tinch yo'l bilan hal qilishini, kundalik vazifalarni birgalikda bajarishini ko'rsa, uning ongida "sog'lom oila modeli" shakllanadi. Aksincha, sovuq, keskin, hissiy jihatdan uzoq bo'lgan muloqot muhitida o'smirning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari ham salbiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ota-ona o'zaro doimiy tortishadigan, muammolarni ovoz ko'tarib hal qiladigan, farzand bilan suhbatga kam vaqt ajratadigan oilalarda o'sayotgan o'smir oila tushunchasini stress, mojarolar yoki noturg'unlik bilan bog'lashi mumkin. Bu holat kelajakda nikohga nisbatan ishonchsizlik tug'diradi. O'smir o'zining kelajak oilasida ham xuddi shunday muammolar takrorlanishidan qo'rqib, muloqotdan chekinishga moyil bo'lib qoladi. Demak, oila ichidagi muloqot o'smirning oilaviy tasavvurlarini shakllantiruvchi asosiy psixologik model sifatida namoyon bo'ladi.

Turkiy xalqlarda maslahatlashib qaror qabul qilish, yig'inlar (majlislar) orqali muloqot qilish an'anasi mavjud bo'lgan. Bu bugungi kunda demokratik oilaviy muloqotning tarixiy ildizlari borligini ko'rsatadi. Qadimgi turk bitiklarida ota-ona farzandni nafaqat tarbiyalovchi, balki hayotga yo'l ko'rsatuvchi do'st sifatida tasvirlangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Yuqori sinf o'quvchilarining oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirish jarayoni bir qator psixologik nazariyalar asosida tushuntiriladi. Avvalo, Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, shaxs xulq-atvorni kuzatish, taqlid qilish va modellashtirish orqali o'zlashtiradi. O'smir ota-onasining muloqot uslubini, nizolarni hal qilish shaklini, hissiyotlarni ifodalash usullarini kuzatadi va ularni "normal oila modeli" sifatida ichki qabul qiladi.[1]

Shuningdek, John Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan bog'lanish (attachment) nazariyasiga ko'ra, bola va ota-ona o'rtasidagi emosional yaqinlik keyingi munosabatlar sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar oilada xavfsiz emotsional muhit mavjud bo'lsa, o'smir kelajakdagi nikohga nisbatan ishonch bilan qaraydi.[2]

Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga muvofiq, o'smirlik davri "identiklikka erishish" bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda o'smir o'zining kelajak ijtimoiy rollarini, jumladan, er yoki xotin rolini tasavvur qila boshlaydi.[3]

Lev Vygotsky esa shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Oila ichidagi muloqot o'smirning ijtimoiy tajribasini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.[7] Shu tariqa, identifikatsiya, emotsional rezonans va modellashtirish mexanizmlari nazariy jihatdan asoslangan psixologik jarayonlar sifatida namoyon bo'ladi.

Natija va muhokama.

Mazkur tadqiqot empirik xarakterga ega bo'lib, yuqori sinf o'quvchilarining oilaviy hayot haqidagi tasavvurlariga oila ichidagi muloqotning ta'sirini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida miqdoriy va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Farg'ona viloyatidagi 5- umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari hamda tojikistondagi maktabning yuqori sinf o'quvchilari tanlab olindi. Tanlanma jami 115 nafar respondentdan iborat bo'lib, ulardan 60 nafari o'zbek millatiga, 55 nafari tojik millatiga mansub o'quvchilardir.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: birinchidan, "Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar"ni aniqlashga qaratilgan maxsus tuzilgan so'rovnomaga qo'llanildi. Ushbu anketa orqali o'quvchilarning nikohga tayyorgarlik darajasi, kelajak oilasi haqidagi qarashlari, oilaviy mas'uliyatni anglash darajasi o'rganildi. Ikkinchidan, "Oila ichidagi muloqot sifati"ni aniqlash maqsadida diagnostik savolnoma qo'llanildi. Unda ota-ona va farzand o'rtasidagi muloqot ochiqligi, emotsional yaqinlik, o'zaro hurmat, konfliktlarni hal qilish uslubi kabi ko'rsatkichlar baholandi.

Shuningdek, oila ichidagi muloqot sifati va oilaviy tasavvurlar o'rtasidagi bog'liqlik qiyosiy tahlil orqali aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida respondentlarning anonimligi va ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlandi. Ishtirokchilar tadqiqotda ixtiyoriy ravishda qatnashdilar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oila ichidagi muloqot sifati yuqori bo'lgan o'quvchilarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar ancha ijobiy shakllanganligi aniqlandi.

1-jadval.

1. Nikohga tayyorgarlik darajasi:

Ko'rsatkich	O'zbek (%)	Tojik (%)
Ijobiy va mas'uliyatli qarash	72%	69%
Noaniq tasavvur	18%	21%
Salbiy yoki qo'rquvli qarash	10%	10%

2-jadval.

2. Oilada ochiq muloqot mavjudligi:

Ko'rsatkich	O'zbek (%)	Tojik (%)
Ochiq va demokratik muloqot	68%	64%
Qisman ochiq	22%	25%
Sovuq yoki keskin	10%	11%

Natijalar shuni ko'rsatdiki: Oilada ochiq muloqot mavjud bo'lgan o'quvchilarda nikohga ijobiy qarash 70% dan yuqori. Sovuq muloqot mavjud oilalarda esa salbiy tasavvur darajasi sezilarli yuqori. Millatlar o'rtasida katta tafovut kuzatilmadi, bu oila muloqotining universalligini ko'rsatadi. Shuningdek, emosional rezonans yuqori bo'lgan oilalarda o'quvchilar kelajak oilasida ham muloqotni muhim qadriyat sifatida belgilagan.

Yuqori sinf o'quvchilarining oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari asosan oila ichidagi muloqot sifati orqali shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ochiq, samimiy va

hurmatga asoslangan muloqot muhiti o'smirda nikohga nisbatan ijobiy, mas'uliyatli va realistik qarashlarni shakllantiradi.

Identifikatsiya, emosional rezonans va modellashtirish mexanizmlari ushbu jarayonning asosiy psixologik omillari hisoblanadi. Oila ichidagi sog'lom kommunikativ muhit nafaqat o'smirning hozirgi emotsional barqarorligiga, balki uning kelajakdagi oilaviy muvaffaqiyatiga ham xizmat qiladi. Shu sababli ota-onalar bilan psixologik maslahat ishlari, oilaviy kommunikatsiya treninglarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlik davrida shaxsning ijtimoiy faoliyati kengayadi, mustaqil qaror qabul qilishga intilish kuchayadi va ular o'z munosabatlari uchun kommunikativ mezonlar yaratishni boshlaydilar. Shu jarayonda oila muloqoti nafaqat axborot almashish jarayoni, balki shaxsning o'zini anglash, his-tuyg'ularni boshqarish va ijobiy interaktsiya ko'nikmalarini shakllantiruvchi psixologik zamin hisoblanadi. O'quvchi oiladagi muloqot ko'nikmalarini maktabda, tengdoshlari bilan, keyinchalik esa oilaviy hayotida qo'llaydi. Shu sababdan, kommunikativ tajriba uzluksiz ravishda yangi munosabatlar uchun model bo'lib xizmat qiladi.

Psixologiya fanida oila ichidagi muloqotning o'smir psixologiyasi uchun muhim bo'lgan bir nechta mexanizmlari ko'rsatib o'tiladi. Birinchi mexanizm — identifikatsiya jarayoni bo'lib, bunda o'quvchi ota-onasining muloqot uslubini o'ziga singdiradi. Ular qanday gaplashadi, muammoga qanday munosabat bildiradi, bir-birini tinglaydimi yoki yo'q — bularning barchasi o'smir ongida "normal muloqot" andozasi sifatida mustahkamlanadi. Ikkinchi mexanizm — emosional rezonans, ya'ni oila a'zolari o'rtasidagi ijobiy yoki salbiy emotsional aloqaning psixik ta'siri. Uchinchi mexanizm — modellashtirish va qayta ishlab chiqish bo'lib, o'quvchi oilada ko'rgan muloqot tajribasini o'z hayotida moslashtiradi, unga munosib shaklda qayta yaratadi.

Oilada iliq emotsional muhit, ochiq muloqot, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash bo'lsa, bu o'smirning kelajakdagi oilaviy hayot haqidagi tasavvurlariga eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki o'smirning oilaga bo'lgan munosabati uning tajribasi bilan bog'liq ravishda shakllanadi. U yaxshi muloqot ko'rgan bo'lsa, kelajakda ham shunday muloqotni yaratishga intiladi. Agar oilada keskinlik, sovuqlik yoki aralashuv ko'p bo'lsa, o'smir kelajakdagi munosabatlarda ehtiyotkorlik, hatto negativ yondashuvlarga ega bo'lishi mumkin.

Oila ichidagi muloqot shaxsning qadriyat tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Muloqot ijobiy bo'lgan oilalarda o'smirlar nikohni hamkorlik, hurmat, mas'uliyat va mehrga asoslangan ijtimoiy institut sifatida ko'rishadi. Ular oilani inson hayotida eng muhim tayanch, ruhiy osoyishtalik va ijtimoiy barqarorlik manbai sifatida qabul qilishadi. Ammo muloqoti sust oilalarda o'smirlar oila haqida noaniq, qarama-qarshi yoki salbiy fikrga ega bo'lishi mumkin. Bunday bolalarda kelajakda nikohdan qochish, munosabatlardan qo'rqish yoki beqaror oilaviy aloqalar kuzatiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarining oilaviy tasavvurlari ong osti jarayonlari orqali ham shakllanadi. O'smir boshqalarning oilasini kuzatadi, do'stlari bilan suhbatlashadi, internetdan ma'lumot oladi, lekin eng chuqur va barqaror ta'sir aynan o'z oilasidan keladi. Har kuni u ko'rayotgan muloqot modeli uning ichki psixik tizimiga singib boradi. Shuning uchun ham o'smirlik davrida muloqotning sifati, ohangi, mazmuni va muntazamliligi beqiyos ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, oila ichidagi muloqotni sog'lom yo'lga qo'yish nafaqat o'smirning hozirgi emotsional ahvoli, balki uning kelajakdagi oilaviy hayoti, nikohga yondashuvi va shaxsiy munosabatlaridagi muvaffaqiyati uchun ham zarur. Ota-

onalarning farzand bilan hurmat asosidagi munosabati, kerakli paytda tinglay olishi, fikr bildirishi va unga tanlov erkinligini berishi o'smirda oila va nikohga nisbatan ijobiy, barqaror va realistik qarashlarni shakllantiradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori sinf o'quvchilarining oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari bevosita oila ichidagi muloqot sifati bilan bog'liq holda shakllanadi. Oila shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti sifatida nafaqat axloqiy qadriyatlarni, balki kelajakdagi oilaviy rollar, nikohga munosabat va shaxslararo muloqot mezonlarini ham belgilab beradi.

Nazariy tahlillar asosida aniqlanishicha, Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi, John Bowlbyning bog'lanish nazariyasi, Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish konsepsiyasi hamda Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi oila ichidagi muloqotning o'smir shaxsiga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Identifikatsiya, emosional rezonans va modellashtirish mexanizmlari o'smir ongida "oila modeli"ning shakllanishida muhim psixologik omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Empirik natijalar ham ushbu nazariy xulosalarni tasdiqladi. Oilada ochiq, demokratik va emosional qo'llab-quvvatlovchi muloqot mavjud bo'lgan o'quvchilarda nikohga nisbatan ijobiy va mas'uliyatli qarashlar yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi. Aksincha, sovuq yoki konfliktli muloqot muhiti mavjud oilalarda o'quvchilarning oilaviy hayotga oid tasavvurlari noaniq yoki salbiy yo'nalishda shakllanganligi kuzatildi. Millatlar kesimida sezilarli tafovut aniqlanmadi, bu esa oila muloqotining universalligi va umumiy psixologik qonuniyatlarga asoslanishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, oila ichidagi muloqot yuqori sinf o'quvchilarining kelajak oilaviy hayotiga nisbatan qarashlari, qadriyat tizimi va nikohga tayyorgarlik darajasini belgilovchi muhim psixologik omil hisoblanadi. Ota-onalar tomonidan sog'lom kommunikativ muhitni yaratish, farzand bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, emosional qo'llab-quvvatlashni ta'minlash yoshlarning kelajakda barqaror va muvaffaqiyatli oilaviy munosabatlarni qurishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Bandura, A. (1986). *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. Prentice Hall.
2. Bowlby, J. (1969). *Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment*. New York: Basic Books.
3. Erikson, E. H. (1994). *Identity and the Life Cycle*. New York: W. W. Norton & Company.
4. G'oziev, E. G'. (2002). *Yosh davrlari psixologiyasi*. Toshkent.
5. Karimova, V. M. (2010). *Oila psixologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi.
6. To'xtaboyeva, M. (2015). *Oila va nikoh psixologiyasi*. Toshkent.
7. Vygotskiy, L. S. (2005). *Pedagogik psixologiya*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. – 320 b.